



**O`ZBEKISTONDAGI QORINOYOQLI
MOLLYUSKALARINING (GASTROPODA) BIOLOGIK
XILMA-XILLIGI**

Suyunova Yodgora Muzaffar qizi

Guliston davlat universiteti

Zoologiya yo`nalishi 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: O`zbekiston hududi biologik-xilma-xilligi bilan ajralib turadi va qorinoyoqli mollyuskalar (Gastropoda sinfi) ham bu ekotizmning muhim qismini tashkil qiladi. Ushbu maqolada mamlakatimizning turli hududlarida uchraydigan qorinoyoqli mollyuskalar turlari, ularning yashash joylari va ekologik ahamiyati ko`rib chiqiladi. Respublikamizning turli hududlarida yashovchi qorinoyoqli mollyuskalar chuchuk suv, quruqlik, sho`rxok muhitga moslashgan. Ular ekotizmda muhim ro`l o`ynaydi, tuproq unumdorligini oshirishga va organik moddalar parchalanishiga hissa qo`shadi. Shuningdek maqolada, ularning muhofaza holati va populyatsiyasiga ta`sir etuvchi omillar haqida ham so`z boradi.

Аннотация: Территория Узбекистана отличается биологическим разнообразием, и брюхоногие моллюски (класс Gastropoda) являются важной частью его экосистемы. В данной статье рассматриваются виды брюхоногих моллюсков, встречающиеся в различных регионах нашей страны, их места обитания и экологическое значение. В республике эти моллюски адаптировались к пресноводной, засушливой и солоноватой среде. Они играют важную роль в экосистеме, способствуют повышению плодородия почвы и разложению органических веществ. Кроме того, в статье обсуждаются их статус сохранности и факторы, влияющие на популяцию.

Annotation: The territory of Uzbekistan is distinguished by its biological diversity, and gastropod mollusks (class Gastropoda) form an important part of its ecosystem. This article examines the species of gastropod mollusks found in various



regions of our country, their habitats, and their ecological significance. In the republic, these mollusks have adapted to freshwater, arid, and saline environments. They play a crucial role in the ecosystem by enhancing soil fertility and contributing to the decomposition of organic matter. Additionally, the article discusses their conservation status and the factors affecting their population.

Kalit soʻzlar: Mollyuskalar, zoologiya, ekologiya, muhofaza holati, ekotizim.

Ключевые слова: Моллюски, зоология, экология, состояние охраны, экосистема.

Keywords: Mollusks, zoology, ecology, conservation status, ecosystem

Qorinoyoqli mollyuskalar hayvonot dunyosining eng xilma-xil sinflaridan biri boʻlib, ular Oʻzbekistonda ham keng tarqalgan. Bu mollyuskalar suv havzalari, nam oʻrmon hududlari, choʻl va togʻ etaklari kabi turli biotoplarga moslashgan boʻlib, umumiy biologik xilma-xillikni saqlashda muhim rol oʻynaydi. Mamlakatimiz hududida choʻl, togʻ, oʻrmon, daryo va shoʻrxok hududlar mavjudligi qorinoyoqli mollyuskalar yashash joylarining xilma-xilligiga sabab boʻladi. Ular tuproq unumdorligini oshiradi, chunki chirigan oʻsimlik qoldiqlari bilan oziqlanib, ekotizmda organik moddalarning parchalanishiga hissa qoʻshadi. Ozuqa zanjirining bir qismi boʻlib, qushlar sudralib yuruvchilar va sut emizuvchilar uchun ozuqa manbai hisoblanadi. Suv havzalari ekologik holatini baholash uchun indikator hisoblanadi, chunki ular suv ifloslanishiga sezgir. Turli qorin oyoqli mollyuskalarning chigʻanoqlaridan sadaf olishda, xilma-xil ziynat buyumlar yasashda foydalanilsa, yana bir qator turlari esa chorva mollariga ekoparazit kasalliklarni tarqatishda oraliq xoʻjayin vazifasini oʻtaydi. Shunga qaramay, Oʻzbekistonda bu sinfga oid turlar yetarlicha oʻrganilmagan.



O`zbekiston FA Zoologiya instituti tomonidan olib borilgan kuzatuvlar, ilmiy adabiyotlar va mavjud ma`lumotlar asosida O`zbekistonning turli hududlarida uchraydigan qorinoyoqli mollyuskalarning 100dan ortiq turi qayd etilgan. Ularni asosiy uchta ekologik guruhga ajratish mumkin:

1. Hidrofil (namsevar) mollyuskalar

Ushbu guruh namlik yuqori hududlarda uchraydi: daryo va ko`llar atrofida, o`rmonzorlarda.

Vakillari: *Succinea putris*, *Oxyloma elegans*. O`zbekistonning chuchuk suv havzalarida quyidagi turlar uchraydi.

2. Kserofil (qurg`oqchil hududlarga moslashgan) mollyuskalar

Cho`l va dasht hududlarda uchraydi, suvga ehtiyoji kam. Qobiqlari qalin bo`lib, namlikni ushlab turish xususiyatiga ega.

Vakillari: *Eremina desertorum*, *Pupilla muscorum*.

3. Mezofil (o`rtacha namlik talab qiluvchi) mollyuskalar

Vakillari: *Helicella striata*, *Zebrina detrita*.

4. Antropofil (inson yashash joylariga moslashgan) mollyuskalar

Qishloq xo`jalik yerlari, bog`lar, yashsh hududlarida uchraydi. Ayrim turlari xo`jalik ekinlariga zarar yetkazishi mumkin.

Vakillari: *Deroceras reticulatum*, *Arion vulgaris*.

Tarqalgan hududlariga ko`ra ularning ba`zi turlari quyidagilar:

Chuchuk suv gastropodlari: *Lymnaea stagnalis*, *Physa acuta*, *Planorbis planorbis*



Ushbu mollyuskalar asosan daryo, ko'l, buloq va sug'orish kanallarida uchraydi. Ular o'simliklar orasida yashaydi va filtratsiya orqali organik moddalardan oziqlanadi. Ba'zilar qishloq xo'jalik ekotizmlarida muhim ahamiyatga ega.

Quruqlik gastropodlari: *Helix lucorum*, *Brady fruticum*, *Eobania vermiculata*

Ular namlik darajasi yuqori bo'lgan bog'lar, o'rmonzorlarda va tog' etaklarida uchraydi. Tuproq unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki organik qoldiqlarni parchalashda ishtirok etadi. Ayrim turlari qishloq xo'jaligiga zara yetkazishi mumkin.

Sho'rlangan hududlarda yashovchi gastropodlar: *Pseudamnicola*, *Hydrobia*

O'zbekistonning cho'l va yarim cho'l hududlarida, suv manbalari yaqinida uchraydi. Sho'r suvga moslashgan bo'lib, suv o'tlar va organik qoldiqlardan oziqlanadi.

Qorinoyoqli mollyuskalar anatomik jihatdan quyidagi asosiy tuzilmalarga ega:

1. Tashqi qobiq(karapaks): Ularning qobig'i ohaktosh moddasidan tashkil topgan bo'lib, tashqi muhit ta'siridan himoya qiladi.
2. Tana tuzilishi: Mollyuskalar asosan uch qismdan iborat: bosh, tana, va oyoq. Ayrim turlarida oyoq suzish, ba'zilarida esa sudralish uchun moslashgan.
3. Nafas olish: Chuchuk suv va dengiz turlarida jabralar orqali, quruqlik turlarida esa maxsus o'pka orqali nafas oladi.
4. Oziqlanish: Ko'p turlari filtrator yoki chirindilar bilan oziqlanadi, ayrim yirtqich turlar ham uchraydi.

O'zbekistonda qorinoyoqli mollyuskalar biologik xilma-xillik jihatidan nisbatan yaxshi o'rganilgan, biroq ayrim turlarning soni kamayib bormoqda.



Ayniqsa, urbanizatsiya va qishloq xo`jaligi faoliyati natijasida ba`zi turlar xavf ostida qolmoqda. Ta`kidlash lozimki, qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining keskin kengayishi o`zlashtirilgan hududlardagi quruqlik mollyuskalari zamonaviy holatiga ta`sir ko`rsatmoqda.

Qo`riq yerlarning o`zlashtirilishi va chorvachilikning rivojlanishi, qorinoyoqli mollyuskalarning endemik turlari va kamyob turlari tarqalgan hududlarning qisqarishiga va populyatsiyalarning inqiroziga sabab bo`lmoqda. Ikkinchi tomondan, quruqlik mollyuskalari ayrim zararli turlari sonining ortishi, chorvachilik ahamiyatiga ega ozuqabop o`simliklarga zarar yetkazish ko`rsatkichining oshishi va chorva hayvonlarining parazit lichinkalari bilan kasallanish ko`lamining kengayishiga olib kelmoqda. Binobarin, o`zgaruvchan lokal hududlardagi qorinoyoqli mollyuskalarning tur tarkibini aniqlash, kamyob turlari populyatsiyalari holatini baholash, muhofaza qilish nuqtai nazaridan tabiiy yashash muhitlarini saqlash va maxsus qo`riqxonalarda monitoring olib borish, zararli turlariga qarshi esa samarador kurashish usullarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qorinoyoqli mollyuskalar populyatsiyasiga ta`sir etuvchi asosiy omillar:

1.1 Iqlim o`zgarishi va qurg`oqchilik.

Suv mollyuskalari soni kamayib ketishiga sabab bo`lmoqda.

1.2 Kimyoviy pesdidsitlar va ifloslanish.

Qishloq xo`jaligida qo`llaniladigan kimyoviy moddalar mollyuskalarga zarar yetkazadi

1.3 Tabiiy yashash joylarining yo`qolishi

Shaharsozlik va qishloq xo`jaligi natijasida ularning yashash muhiti qisqarib bormoqda.



Bu omillar tufayli ayrim turlar muhofazaga muhtoj. Masalan, Helix pomatia Yevropada muhofazaga olingan, lekin O`zbekistonda hali maxsus choralar ko`rilmagan.

O`zbekistonda qorinoyoqli mollyuskalarning biologik xilma-xilligi juda keng bo`lib, ular ekotizmda muhim rol o`ynaydi. Chuchuk suv, quruqlik va sho`rxok hududlarda yashovchi mollyuskalar tabiiy muhitning barqarorligiga xizmat qiladi. Shu sababli, ularning populyatsiyasini monitoring qilish va muhofaza qilish chora tadbirlarini ishlab chiqish zarur. Kelajakda ularning soni va yashash sharoitlari bo`yicha yanada kengroq tadqiqotlar o`tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Жадин В.И. – Пресноводные моллюски и их географическое распространение (Москва: Наука, 1952).
2. Крючкова Л.Г. – Роль моллюсков Центральной Азии в экосистеме (Биологический журнал, 2018).
3. Институт зоологии АН Узбекистана – Состояние охраны моллюсков Узбекистана (Ташкент, 2020).
4. Наземные моллюски (gastropoda, pulmonata) Узбекистана сопредельных территорий (Ташкент, Фан 2003)